

**“O‘zkimyosanoat” AJ ijro apparatidagi bo‘sh ish o‘rinlariga
o‘tkazilgan ochiq tanlovning uchinchi suhbat bosqichi**

BAYONI 8-sonli

“02” mart 2023-yil

Toshkent shahar

- Komissiya raisi:** - **V.Aripov** –Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig‘i
- Komissiya a‘zolari:** - **O.Mirtemirov** – Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi,
G‘.Abdullayev – ijro apparati kasaba uyushmasi raisi,
J. Vafoyev – yuridik boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari
- Komissiya kotibi:** - **N.Mamedova** – Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi bosh mutaxassisi.

Kun tartibi:

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi bosh mutaxassisi lavozimiga nomzodlar bilan suhbat o‘tkazish va test sinovlari bosqichiga tavsiya qilish to‘g‘risida.

“O‘zkimyosanoat” AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi bosh mutaxassisi lavozimiga malaka talablari bo‘yicha sarab olingan 3 nafar nomzodlar bilan suhbat o‘tkazildi.

Nomzodlar bilan o‘tkazilgan suhbat natijalariga hamda komissiya a‘zolari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarini inobatga olib,

QAROR QILINDI:

1. “O‘zkimyosanoat” AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi bosh mutaxassisi lavozimiga 3 nafar nomzodlar bilan uchinchi bosqichda suhbat o‘tkazildi deb hisoblansin.

2. O‘tkazilgan suhbat natijalari ko‘ra sohaga oid bilim va tajribasi ijobiy baholangan 2 nafar nomzodlar, ya‘ni Adilov Farxod Abbasovich va Kazakov Abror Yusup o‘g‘liga keyingi test sinovi bosqichiga tavsiya etilsin.

Berilgan savollarga qoniqarli javob bera olmagan 1 nafar nomzod Ermatov Sardor Nuritdinovichga keyingi bosqichga o‘tishiga rad javobi berilsin.

3. Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi (Aripov) tomonidan quyidagilar ta'minlansin:

- "O'z kimyosanoat" AJ ijro apparatida mavjud bo'lgan bo'sh ish o'rinlariga nomzodlarni test sinovlaridan o'tkazish bo'yicha" nizomi talablariga muvofiq joriy yilning 10-mart kuni o'rnatilgan tartibda test sinovlarini o'tkazish;

- test sinovlariga jalb qilinishi tavsiya etilgan 2 nafar nomzodlar test sinovlari o'tkazilish joyi va vaqti haqida o'z muddatida ogohlantirish.

4. Axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligini rivojlantirish boshqarmasi (Axmedov) tomonidan suhbat jarayoni kuzatuv kameralari va veb kameralar orqali tasvirga olinishi amalga oshirilsin hamda xavfsiz saqlanishi ta'minlansin.

5. Komissiya tomonidan:

- test sinovlari jarayonlari shaffoflik va odillik tamoyillari asosida o'tkazilishi ta'minlansin;

- test sinovlari natijalari bo'yicha rahbariyatga axborot kiritilsin.

Komissiya raisi



V.Aripov

Komissiya kotibi



N.Mamedova



**“O‘zkimyosanoat” AJ ijro apparatidagi bo‘sh ish o‘rinlariga
o‘tkazilgan ochiq tanlovning to‘rtinchi test bosqichi
BAYONI 9-sonli**

“24” mart 2023-yil

Toshkent shahar

- Komissiya raisi:** - V.Aripov –Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig‘i
- Komissiya a‘zolari:** - O.Mirtemirov – Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi,
G‘.Abdullayev – Ijro apparati kasaba uyushmasi raisi,
J. Vafoyev – Yuridik boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari
- Taklif etilgan ekspertlar:** - B.Babayev – Buxgalteriya va korporativ hisoboti boshqarmasi bosh buxgalteri,
R.Abduraxmanova – Iqtisodiyot va biznesni rejalashtirish departamenti boshlig‘i,
S.Xamdamov – G‘aznachilik operatsiyalari va ichki xaridlar bo‘limi boshlig‘i
- Komissiya kotibi:** - N.Mamedova – Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi bosh mutaxassisi

Kun tartibi:

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi bosh mutaxassisi lavozimiga nomzodlar bilan test sinovlari va suhbat o‘tkazish to‘g‘risida.

*(V.Aripov, O.Mirtemirov, G‘.Abdullayev, J.Vafoyev,
B.Babayev, R.Abduraxmanova, S.Xamdamov)*

“O‘zkimyosanoat” AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi bosh mutaxassisi lavozimiga malaka talablari bo‘yicha sarab olingan 2 nafar nomzodlar bilan komissiya a‘zolari va taklif etilgan ekspertlar ishtirokida **test sinovlari va suhbat o‘tkazildi.**

Nomzodlar bilan o‘tkazilgan suhbat natijalariga hamda komissiya a‘zolari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarini inobatga olib,

QAROR QILINDI:

1. “O‘zkimyosanoat” AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi bosh mutaxassisi lavozimiga 2 nafar nomzodlar bilan test sinovlari va suhbat o‘tkazildi deb hisoblansin.

2. O'tkazilgan test sinovlari, suhbat va savol-javob natijalari ko'ra: nomzod Kazakov Abror Yusup o'g'lining sohaga oid bilim va tajribasi ijobiy baholansin;

nomzod Adilov Farxod Abbasovich berilgan savollarga qoniqarli javob bera olmaganligi sababli rad javobi berilsin.

3. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi boshlig'i O.Mirtemirovning nomzod A.Kazakovni istisno tariqasida sinov muddati bilan ishga qabul qilish haqidagi iltimosnomasi inobatga olinsin.


4. "O'zkiymosanoat" AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi bosh mutaxassisi lavozimiga Kazakov Abror Yusup o'g'lining nomzodini ko'rib chiqish uchun "O'zkiymosanoat" AJ boshqaruvi raisiga tavsiya etilsin.

5. A.Kazakov nomzodi boshqaruv raisi tomonidan ma'qullangan taqdirda 3 oylik sinov muddati va tegishli davlat organlari bilan kelishilgan holda rasmiylashtirilishi inobatga olinsin.

6. Tegishli hujjatlar bilan birgalikda ushbu bayonnoma nusxasi "O'zkiymosanoat" AJ boshqaruvi raisiga taqdim etilsin.

7. Bayonnomaning asl nusxasi Xodimlar bilan ishlash boshqarmasida saqlanishi ta'minlansin.

Komissiya raisi



V.Aripov

Komissiya kotibi



N.Mamedova

Komissiya a'zolari va taklif etilgan ekspertlar bilan kelishilgan:

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi boshlig'i



O.Mirtemirov

Ichki savdoni muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i, kasaba uyushmasi raisi




G'.Abdullayev

Yuridik boshqarma boshlig'i o'rinbosari



J.Vafoyev

Buxgalteriya va korporativ hisoboti boshqarmasi bosh buxgalteri



B.Babayev

Iqtisodiyot va biznesni rejalashtirish departamenti boshlig'i



R.Abduraxmanova

G'aznachilik operatsiyalari va ichki xaridlar bo'limi boshlig'i

S.Xamdamov